

TURKISTON O'LKASINING DINIY TARBIYA MUASSASALARI VA TURKISTONDA JADIDCHILIKNING RIVOJLANISHI.

Sarsenbayeva Farida To'xtaboyevna

Ajiniyoz nomidagi NDPI Filologiya fakulteti

Qoraqalpoq tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishining

4-kurs talabasi

Annotatsiya: Turkiston o'lkasida diniy tarbiya muassasalari va pedagogik fikrlarning rivojlanishi, Turkistonda chorizm maktab siyosatining boshlanishi. Turkistonda rus-tuzem maktablari va matbuot. Turkistonda jadidchilikning rivojlanishi.

Tayanch so'zlar: Turkiston, ta'lim-tarbiya, jadid, pedagog, xalq, maktab, madrasa-masjid, diniy falsafa.

XIX asr o'rtalarida Turkiston o'lkasida boshlang'ich ta'lim beradigan maktab, o'rta va oliy diniy ta'lim beradigan madrasalar bo'lgan. Maktablarning ko'pchiligi, ayniqsa, qishloq maktablarining ko'pchiligi diniy ta'lim beradigan eng oddiy boshlang'ich maktablar edi. Bu maktablarda o'quvchilarga ulamolar, savodli odamlar dars beradigan bo'lgan. Asosan, eng oddiy diniy vazifalarni o'rgangan, ya'ni arab tilida yozilgan Qur'on kitobini o'qib o'rgatgan, har bir musulmon uchun zarur bo'lgan vazifalar bilan cheklangan. Shahar maktablarida diniy ta'limdan tashqari umumiy ta'lim elementlari - yozuv va hisobni o'rgangan, xalq orasida mashhur shoirlarning she'r va g'azallarini yod olgan. Odatda, bunday maktablarning o'quvchilari badavlat oila farzandlari bo'lgan. Ular o'qishni tugatib, olgan bilimlarini savdo-sotiq ishlariga, hunarmandchilik ustaxonalarida ishlatgan. Ba'zilar qo'shimcha ta'lim olib, husnixatli o'quvchilar kotiblik bilan shug'ullangan, ba'zilar madrasaga kirib o'qishini davom ettirgan.

Oliy diniy maktab bo'lgan madrasada o'rta asrlarga oid diniy falsafiy qarashlar, arab tili grammatikasi va mantiq kabi fanlarni o'rgangan. Madrasani tamomlaganlar imomlik bilan shug'ullanganlar va qozixonalarda ishlash huquqiga ega bo'lganlar.

Feruzning farmoniga muvofiq 1904-yil 10-noyabrda Urganchda birinchi yangi usul maktab ochildi. Husayn Kushaev degan Turkiyadan kelgan o'qituvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya bera boshladi. Husayn Qo'shayev 1906-1907-o'quv yilida xonlikda bir qancha takliflarni hisobga olib, Urganchda qizlar maktabini qurdiradi, Feruz unga homiylik qilib, xazina hisobidan maktab uchun alohida mablag' ajratib beradi. Bu maktabda Husayn Kushaevning umr yo'ldoshi Kamola Kushaeva qizlarga ta'lim bera boshlaydi. 1909-yilga kelib, Feruzning qo'l ostidagi madrasalarning soni 130 ga yetdi. Feruz Xivadagi o'qimishli kishilar orasida obro'ga ega bo'lgan Kamol

Xorazmiyni Toshkent shahridagi gimnaziya va maktablardagi o'qitish usullarini o'rganib kelish maqsadida Toshkentga yuboradi. U safardan qaytgach, Kamol Xorazmiy bu sohadagi ishlarni rivojlantirib yuboradi. Maktab o'quv dasturiga matematika, tarix, geografiya, tabiat, rus tili, ona tili va diniy fanlarni o'qitish kiritilgan. Undan tashqari Sharq mutafakkirlari - Navoiy, Bedil, Sa'diy Sheroziy, Mashrab, So'fi Olloyor bilan birgalikda, rus shoir-yozuvchilarining asarlarini ham o'rgangan. Shuningdek, san'at, ta'lim va madaniyat yetakchilik qilib, saroyda "Podsho zamon tipolitografiyasi"ni tashkil etdi. "Litografiya" - yunoncha cholg'u asboblari bo'lib, "litos-tosh" va "graphos-yozaman" degan ma'noni anglatadi. Feruz saroyidagi ushbu nashriyotda ilk bor Abu Nasr Forobiyning "Bolalar nasibasi," Alisher Navoiyning "Xamsa" asaridan parcha, "Hayrat-ul Abror" dostoni, Shermuhammad Munisning "Munis ul-ushshoq" devoni, Feruzning "Devoni Feruz" kabi asarlar nashr etildi.

Markaziy Osiyoda Temuriylar rahbariyati inqirozga yuz tutganidan so'ng, bu o'lkani qo'lga kiritish uchun jahonning ko'p mamlakatlari harakat qildi. Shulardan biri Podsho Rossiyasi edi. XIX asrning II yarmiga kelib, Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari o'rtasida ziddiyatlar paydo bo'ldi. Bu Rossiya uchun Markaziy Osiyoni bosib olish uchun qulay imkoniyat edi. Dastlab Qozog'istonni o'ziga bo'ysundirdi. So'ng Qozog'iston orqali 1864-yili Turkmaniston, Chimkent, Avliyoota, 1865-yili Toshkentni bosib oldi. 1867-yilda Yettisuv viloyati, 1868-yilda Samarqand, 1876-yilda Farg'ona viloyati Rossiya qo'lga o'tdi. 1876-yili 19-fevralda podsho Aleksandr II Qo'qon xonligi tugatilganligi haqidagi farmonga imzo chekdi. 1885-yilga kelib Markaziy Osiyoning butun hududi Rossiya tasarrufiga o'tdi va o'lkada Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. Shu bilan Markaziy Osiyo mustamlaka davlatiga aylantirildi. Turkiston o'lkasi Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin podsho ma'murlari, minglab rus oilalari Markaziy Osiyoga ko'chib keladi. Farg'ona viloyati Sirdaryo, Samarqand va boshqa viloyatlardagi mahalliy dehqonlarning unumdor yerlari tortib olinib, ruslarga berildi. Ular Turkiston general-gubernatorligining farmoniga muvofiq, o'lkada rus maktablari, rus-tuzem maktablari, gimnaziya ochish hamda bu maktablarni kengaytirish hisobiga mahalliy maktablar, masjid-madrasalarni yo'q qilib tashlash maqsadida ta'lim bo'yicha bir qancha tadbirlar qildilar. Asosan Turkiston o'lkasining savodxonlik darajasi Podsho Rossiyasi xalqining savodxonligidan kam emas edi. Chunki Turkiston o'lkasi aholisi 1917 yilgi to'ntarishdan oldin xususiy va jamoat maktab-madrasalarida oliy ma'lumot olgan. Maktab faoliyatiga oid asosiy siyosiy va mafkura sohasidagi ko'rsatmalar 1870-yilda Chor Rossiyasi xalq maorifi vaziri D.A. Tolstoy quyidagicha fikr yuritgan: "Bizning vatanimizda yashovchi barcha begona xalqlarning ma'rifatli bo'lishini ta'minlash, ularni ruslashtirish va rus xalqi bilan birlashtirish asosiy maqsadimiz hisoblanadi." 1887-yilda Markaziy Osiyoning general-gubernatori Turkiston o'quv yurtlarining maxsus boshqarmasi tuzilgan bo'lib, ruslashtirish

siyosatini amalga oshirish vazifasi uning zimmasiga yuklatilgan edi. Turkistonda dastlab ochilgan ayrim rus maktablarida o'quvchilarning to'rtidan bir qismi yoki undan ko'prog'i mahalliy xalq bolalari bo'lgan, biroq butun Turkiston o'lkasi bo'yicha hisoblaganda 200 dan oshmagan. Ularning ham ko'pchiligi qozoq bolalari bo'lib, o'zbek va tojik bolalari juda oz edi.

1884-yil 19-dekabrda Toshkentda birinchi rus-tuzem maktabi ochildi. 10 yildan keyin ularning soni to'rttaga ko'paydi. O'lkada rus, rus-tuzem maktablari XIX asrning 70-yillarida vujudga kelgan bo'lsa, 1904-yilga kelib ularning soni 57 taga yetdi.

XIX asr boshlarida Buxorodagi musulmon ruhoniylari va o'qimishli kishilar orasida maktab-madrasalarda o'qitish tizimiga hamda islom diniga kirib qolganlarni isloh qilish fikri paydo bo'la boshladi. Bunday islohot tarafdorlarini jadidlar deb atadi. Jadidlarning asosiy maqsadi quyidagi masalalarni hal etishga qaratilgan edi.

1. Diniy tasavvuf va aqidaparastlikka qarshi kurash.

2. Diniy e'tiqodga asoslangan o'rta asr maktablari o'rniga dunyoviy fanlarni ona tilida o'qitishga moslashtirilgan yangi uslubdagi maktablarni tashkil etish.

3. Jadidchilik g'oyalarini xalqqa yetkazish maqsadida yangi o'zbek badiiy-adabiyotga oid harakatlar ishlab chiqish, matbuot erkinligi uchun kurash, xalq uchun teatrlar yaratish.

4. Ayollarni paranjidan chiqarish va ularni ham o'qitish, taqdirini o'zgartirish.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Bu Milliy Uyg'onish davrining boshlanishi edi. O'sha vaqtning ayrim ma'rifatparvarlari ilg'or mamlakatlar qatoriga yetishish kerakligini shior qilib oldi va uning eng to'g'ri yo'lini ma'rifatni rivojlantirish deb bildi. Shunday qilib, jadid namoyandalari shu yo'l bilan mustaqillikka erishishni maqsad qildilar. (Jadid - arabcha "yangilik," "yangilik tarafdori"). Shu paytlarda mashhur qrim-tatar ma'rifatparvari Ismoil Gaspirinskiy (1851-1914) birinchilardan bo'lib Turkistonda harf-tovush yo'li bilan o'qitiladigan jadid maktabini ochadi. U dastlab 1884-yili Qrimda Bog'chasaroy shahrida jadid maktabini ochadi. "usuli savtiya-harf tovushi" usuli, ya'ni "usuli jadid" asosida dars o'tib, 40 kunda 12 nafar o'quvchining savodini chiqaradi.

I. Gasprinskiy 1893-yili Turkistonga keladi. Turkistonda 1905-1907-yillari jadidlar harakati rivojlanib ketadi. Turkiston jadidlari podshohlik va mahalliy hokimiyatning qarshiliklariga qaramay, yangi usul maktablarini ko'plab ocha boshlaydilar. Salohiddin domla 1898-yili Qo'qonda, Shamsiddin domla 1899-yili Andijonda, 1899-yili Toshkentda. 1910-yilda Hamza Qo'qonning "Qashqar darvoza mahallasida," 1911-yilda Hojibek guzarida, 1914-yilda Marg'ilonda jadid maktablarini ocha boshlaydi. Ular Turkistonda ijtimoiy ongini rivojlantiradilar. Odamlar qalbini harakatga keltiradi.

Turkiston jadidlar harakati Qoraqalpog‘istonga ham ta’sirini o‘tkazdi. Masalan, Qozi Mavlikning o‘zi "Yosh buxoroliklar" jadidlar tashkilotining a’zosi bo‘ldi. Bu tashkilot nufuzli tashkilot bo‘lib, unga Behbudiy, Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Sadriddin Ayniylar ham a’zo bo‘lgan.

Turkiston jadidchilarining eng yirik namoyandalaridan biri Behbudiy Xorazmda va Qoraqalpog‘istonda ham bo‘ladi. Jadidchilik harakatining yana bir vakili So‘fizoda 1910-1916-yillari Qo‘ng‘irotda bo‘lib o‘quvchilarga yangi usulda saboq beradi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy ham Xo‘jalida, Qo‘ng‘irotda va Chimboyda bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ó.Álewov, A.Pazilov, Q.Seytmuratov, T.Ótebaev “Pedagogika tariyxı” sabaqlıq ,Nókis-2020
2. S.Axmedov, Q.Rajabov “Jadidchilik” Toshkent 2000-2005.
3. S.Ayniy “Buxoro inqilobi tariyxi uchun materiallar” Moskva 1926.
4. S.Aǵzamjójajev “Jadidchilik va milliy ǵoya masalalari” Toshkent 2016.
5. N.Egamqulova “XX asr boshlari adabiy jarayoni muammolari” dissertaciyası Toshkent 2021.
6. B.Xodjaev “ Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” Toshkent 2017.
7. «Национальные особенности движения джадидов в Туркестане» Атабаева Дильфуза, Абдираманов.С Москва 2016.
8. «Передовая культура джадидов в Средней Азии в начале XX века» 2008.